



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdulkarimova Dinara Rustamxanovna

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИССЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIVAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIVASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIVAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anijonovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKILOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	
KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	278
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
MAMLAKATIMIZDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	283
Quryozov Sardorbek Sharifboevich	
РАЗРАБОТКА И ПРИОРИТИЗАЦИЯ КЛЮЧЕВЫХ ИНДИКАТОРОВ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЛЯ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОЙ ПАНЕЛИ МОНИТОРИНГА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БОЛЬНИЦ: ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА СО СТОРОНЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ МЕДУЧРЕЖДЕНИЙ	290
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	297
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
BANK TIZIMINING BARQAROR MOLIVAVIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH VOSITALARI	303
Sadikov Iskandar Gayratovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	308
Халиков С. Х.	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNI ROLI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI	313
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС СТАНОВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	317
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	321
Isakov Oybek Jamoliddinovich	
NORASMIY KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING FERMER XO'JALIKLARI YETISHTIRGAN MAHSULOT MIQDORIGA TA'SIRINI BAHOLASH	325
Ismoilov Azamat	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKINI BOSHQARISH AMALIYOTI	332
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SUT VA SUT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLOVCHI KORXONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	341
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
"AYOL RAHBARLAR: RAHBARLIK SALOHİYATI VA ISH JOYIDA TENGLIK" FRANSIYA DAVLATI TAJRIBASI ASOSIDA	346
Abduraxmonova Feruzabonu	



QISHLOQ XO'JALIGIDAGI KLASSTERLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	352
Dildora Yuldasheva	
TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT BAZASINING YETARLILIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	359
I.J. Isakov	
OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA IQTISODIY DIAGNOSTIKA O'TKAZISHNING XORIJ TAJRIBASI	363
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich, Axmedov Oybek Turg'unpulatovich	
INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH YO'LLARI.....	369
Egamberdiyeva Dilorom Botir qizi, Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
"KREATIV IQTISODIYOT" HAMDA "TURIZM" TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	374
Abdurasulov Shovqiddin Erkin o'g'li	
THE STRATEGIC ROLE OF THE INDUSTRIAL SECTOR IN THE NATIONAL ECONOMY AND DEVELOPMENT FACTORS.....	380
Rakhimov Bakhromjon Ibroximovich	
INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	386
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
GLOBAL INCOME INEQUALITY IN 2024: CAUSES, PATTERNS, AND CONSEQUENCES.....	393
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СВОБОДНО ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОНАХ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	401
Шарифходжаев Шавкат Окилович, Ачилова Ширин Шавкат кизи	
O'ZBEKISTON KON-METALLURGIYA SANOATI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HOZIRGI HOLATI	407
Ergashov Botirjon Ergashovich	
PENSIYA JAMG'ARMASIDA DAVLAT BUDJETI TRANSFERTLARI ULUSHI HAMDA UNING XORIJ TAJRIBASI	415
Sherjonov Doniyor Saparbayevich	
O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARINI QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAN FOYDALANIB MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	419
Igitov Jurabek Kuzibekovich	



O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARINI QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAN FOYDALANIB MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI



Igitov Jurabek Kuzibekovich

Toshkent arxitektura qurilish
universiteti v.b.dosent (PhD)

Email: igitov2021@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada korporativ qimmatli qog'ozlar asosida korxonalar faoliyatini va loyihalarini moliyalashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari o'rganilgan. Xususan, maqolada so'nggi yillarda xalqaro fond bozorlarida sanoat kompaniyalarining listingdan o'tish dinamikasi, fond indekslarida bozor kapitallashuvi bo'yicha kuchli yuzlikka kiruvchi kompaniyalar, shuningdek bozorga IPO orqali kirib kelgan kompaniyalarning tahlillari keltirilgan. Bundan tashqari, sanoat kompaniyalarining fond bozori orqali investitsiyalarni jalb qilish usullari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: fond birjalari, ESG, korporativ obligatsiyalar, sanoat tarmoqlari, IPO, SPO, IFRS, sof foyda, amortizatsion, likvidlik.

Abstract. This article examines foreign countries' experience in financing enterprises' operations and projects through corporate securities. In particular, it analyzes recent years' dynamics of industrial companies' listings on international stock markets, considers companies that rank among the top 100 by market capitalization in stock indices, and presents analyses of firms that entered the market via IPOs. The paper also provides a detailed overview of the methods industrial companies use to raise investment through the stock market.

Key words: stock exchanges, ESG, corporate bonds, industrial sectors, IPO, SPO, IFRS, net profit, depreciation, liquidity.

Аннотация. В данной статье исследован зарубежный опыт финансирования деятельности предприятий и их проектов на основе корпоративных ценных бумаг. В частности, в статье проанализирована динамика листинга промышленных компаний на международных фондовых рынках в последние годы, рассмотрены компании, входящие в сто сильнейших по рыночной капитализации в фондовых индексах, а также приведены исследования компаний, вышедших на рынок посредством IPO. Кроме того, подробно освещены методы привлечения инвестиций промышленными компаниями через фондовый рынок.

Ключевые слова: Фондовые биржи, ESG, корпоративные облигации, отрасли промышленности, IPO, SPO, IFRS, чистая прибыль, амортизация, ликвидность.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, sanoat sohasini modernizatsiyalash va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish mamlakat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sanoat korxonalarining samarali faoliyat yuritishi uchun uzluksiz va barqaror moliyalashtirish manbalari zarur. Ana shunday manbalardan biri sifatida qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirish mexanizmi alohida ahamiyatga ega.

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori so'nggi yillarda tubdan isloh qilinmoqda. Davlat rahbarining bir qator farmon va qarorlari asosida kapital bozorini rivojlantirish, sanoat korxonalarini IPO va obligatsiyalar orqali



moliyalashtirish, investorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha tizimli choralar amalga oshirilmoqda. Shu sababli, sanoat korxonalarini qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirishning hozirgi holati, mavjud muammolari va istiqbolli yo'nalishlarini ilmiy tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sanoat korxonalarini qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirishning hozirgi holatini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi. Oldimizga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilangan: qimmatli qog'ozlar bozorining nazariy asoslarini yoritish, sanoat korxonalarini moliyalashtirishda qimmatli qog'ozlarning o'rnini tahlil qilish, O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish bosqichlarini ko'rsatish, 2020–2025-yillarda amalga oshirilgan islohotlarni baholash, sanoat korxonalari moliyalashuvining amaldagi holatini tahlil qilish, asosiy muammolar va to'siqlarni aniqlash hamda xalqaro tajribadan kelib chiqib taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar sharhi O'zbekiston sanoat korxonalarini qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirish mexanizmlarining shakllanishi, rivojlanish tendensiyalari va institutsional omillarini yorituvchi ilmiy manbalarni qamrab oladi. Abduraxmonovning korporativ moliya va kapital bozori bo'yicha tadqiqoti sanoat korxonalarining moliyaviy resurslarga kirishini kengaytirishda aksiyadorlik kapitali, obligatsiyalar emissiyasi va boshqa bozor instrumentlarining o'rnini asoslaydi. Muallif kapital bozorining rivojlanishi korxonalarning uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishini ta'kidlaydi. Toshqulov tomonidan yoritilgan qimmatli qog'ozlar bozori nazariyasi mazkur bozorning infratuzilmasi, tartibga solish mexanizmlari, fond birjalarining faoliyati va likvidlik omillarini tahlil qilgan bo'lib, sanoat subyektlarining bozorga chiqishi uchun zarur shart-sharoitlarni belgilaydi.

Yo'ldoshev investitsiya jarayonlarida qimmatli qog'ozlar bozorining rolini ochib berar ekan, sanoat tarmoqlariga investitsiya oqimini oshirishda aksiyalar, korporativ obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlarning muhimligini ta'kidlaydi. Mamatqulovning korporativ qimmatli qog'ozlar bo'yicha tadqiqoti esa ushbu instrumentlarning iqtisodiyotdagi aylanishi, investorlar faolligi va korxonalarning moliyaviy barqarorligiga ta'sirini amaliy misollar asosida ko'rsatadi. Karimovning innovatsion moliyaviy instrumentlar bo'yicha ishlari sanoat korxonalarini moliyalashtirishda sukuk, konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar, raqamli aktivlar kabi zamonaviy yondashuvlarning ahamiyatini ochib beradi.

Xalqaro ilmiy manbalar sanoat moliyalashtirishida kapital bozori mexanizmlarining samaradorligini chuqur tahlil qiladi. Brealey, Myers va Allen tomonidan ishlab chiqilgan korporativ moliya prinsiplari bozor qiymatini oshirish, kapitalki tuzilmasini optimallashtirish va investitsiyalarni baholashning nazariy asoslarini taqdim etadi. Fabozzining obligatsiyalar va boshqa qarz instrumentlariga oid qo'llanmasi qimmatli qog'ozlar bozorining nasos mexanizmini, risklarni baholash usullarini va sanoat korxonalarining qarz orqali moliyalashtirish imkoniyatlarini yoritadi. Mishkin va Eakins tomonidan taklif etilgan moliyaviy bozorlar modeli esa iqtisodiyotning real sektori bilan moliya tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntirib, sanoat korxonalarining kapital bozoriga chiqishi uchun institutsional talablarga urg'u beradi.

Ushbu adabiyotlar O'zbekiston sanoat korxonalarining qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirilishining hozirgi holatini, mavjud muammolarni va global moliyaviy amaliyotlarga asoslangan yechimlarni tahlil qilish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda sanoat korxonalarining qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirilishiga doir ma'lumotlar fond birjasi hisobotlari, emissiya reyestrlari, korporativ moliyaviy hisobotlar va normativ-huquqiy manbalardan yig'ildi. Olingan ma'lumotlar dinamik qatorlar tahlili, taqqoslama tahlil va bozorfaollik ko'rsatkichlarini baholash usullari orqali qayta ishlanib, moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi aniqlab borildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston sanoat korxonalari, ularning qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashuvi jarayonlari, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini shakllantirish ilmiy yangilik sifatida quyidagilar taklif etiladi. Sanoat korxonalarini moliyalashtirishda qimmatli qog'ozlardan foydalanishning kompleks modeli, bozor infratuzilmasini takomillashtirish yo'llari, xususiylar va institutsional investorlar ishtirokini oshirish choralari, YeSG talablari va "yashil" moliyalashtirish asosida sanoat korxonalari uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori va uning iqtisodiyotdagi roli deganda qimmatli qog'ozlarning nazariy asoslari tushuniladi. Qimmatli qog'ozlar — bu muayyan huquqlarni tasdiqlaydigan va moliyaviy mablag'larni jalb qilish vositasi sifatida xizmat qiladigan maxsus hujjatlardir. Ular orqali davlat, korxona yoki boshqa tashkilotlar



sarmoyachilardan mablag' jalb qiladi, sarmoyador esa o'z navbatida muayyan daromad olish huquqiga ega bo'ladi. Ta'rifga ko'ra, qimmatli qog'ozlar ikki asosiy turga bo'linadi: hissadorlik qog'ozlari — aksiyalar, ular korxona ustav kapitalidagi ulushni ifodalaydi; qarz qog'ozlari — obligatsiyalar va boshqalar, ular qarz majburiyatini tasdiqlaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozoridagi munosabatlar jamiyatda kapitalning samarali taqsimlanishiga, ortiqcha mablag'larga ega subyektlarni investitsiyaga muhtoj subyektlar bilan bog'lashga xizmat qiladi.

Korporativ qimmatli qog'ozlarning iqtisodiy mohiyati deganda xususiy sektorga tegishli korxonalar tomonidan chiqariladigan aksiyalar va obligatsiyalar tushuniladi. Ularning asosiy vazifasi sanoat korxonalarini investitsiya bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish uchun zarur mablag'ni jalb etishdir. Iqtisodiyot nazariyasida korporativ qimmatli qog'ozlarning bir qator iqtisodiy funksiyalari ajratib ko'rsatiladi, ya'ni mobilizatsiya funksiyasi — kapitalni bozor orqali jalb qilish; taqsimlash funksiyasi — investitsiya resurslarini samarali tarzda yo'naltirish; nazorat funksiyasi — aksiyadorlarning korxona faoliyati ustidan ta'sir o'tkazishi; likvidlik funksiyasi — aktivlarni tez pulga aylantirish imkoniyatini yaratadi.

Sanoat korxonalari ko'p hollarda tijorat banklari kreditlariga suyanadi. Ammo kreditlar qimmatga tushadi va ularning muddati cheklangan. Shu bois kapital bozori korxonalar uchun uzoq muddatli va nisbatan arzon resurs manbai hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirishning afzalliklari kapitalni uzoq muddatga jalb qilish, investorlar doirasini kengaytirish, korxona shaffofligi va jozibadorligini oshirish, qarz va kapital balansini optimallashtirishdan iboratdir. Ayniqsa, sanoat sohasi yuqori kapitallilik talabi bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda sanoat korxonalarining moliyalashtirish manbalari turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, ichki manbalarga sof foyda, amortizatsion ajratmalar va korxona xazira fondlari kiradi. Tashqi manbalarga esa tijorat banklari kreditlari, davlat mablag'lari, xorijiy investitsiyalar hamda qimmatli qog'ozlar bozori orqali jalb etilgan kapital kiradi.

Amaliyotda sanoat korxonalarining asosiy moliyalash manbai hali ham tijorat banklari kreditlari hisoblanadi. Bank kreditlari tezkor va kafolatli moliya manbai sifatida xizmat qiladi, biroq ularning qimmati yuqori, muddati cheklangan va ta'minot talablari katta. Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlar bozori sanoat korxonalar uchun nisbatan arzon va uzoq muddatli resurs manbai hisoblanadi, biroq uning ulushi hozircha yetarli darajada yuqori emas. Sanoat korxonalarida aksiyalar chiqarilishi asosan ustav kapitalini shakllantirish yoki uni oshirish maqsadida amalga oshiriladi. 2020–2025-yillarda bir qator yirik sanoat korxonalar IPO orqali aksiyalarni ochiq bozorga taklif qildi. Masalan, Qizilqumsement, Quvasoysement kabi sement ishlab chiqaruvchi zavodlar, UzAuto Motors, Aloqabank, Qishloq Qurilish Bank kabi kompaniyalar, energetika va neft-gaz sohasi korxonalarini misol keltirish mumkin. Bu jarayon sanoat korxonalarining kapitalini oshirish bilan birga ularning bozordagi shaffofligini ta'minladi. Shu bilan birga, IPO orqali aksiya sotish jarayoni aholi va xususiy investorlarning fond bozoriga qiziqishini kuchaytirdi.

Korporativ obligatsiyalar sanoat korxonalar uchun qarz resurslarini jalb qilishning muhim vositasi hisoblanadi. 2020–2025-yillarda O'zbekistonda korporativ obligatsiyalar bozori jadal rivojlandi. Yirik sanoat korxonalar milliardlab so'mlik obligatsiyalar chiqardi. Ularga elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi kompaniyalar, avtomobil sanoati korxonalar hamda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar kiradi. Obligatsiyalar orqali jalb etilgan mablag'lar asosan ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, ayrim hollarda aylanma mablag'larni to'ldirishga yo'naltirilgan. Amaliyotda obligatsiyalar bozori aksiyalarga nisbatan tezroq rivojlanmoqda, chunki obligatsiya investor uchun kamroq xatarli, korxona uchun esa qimmatga tushmaydigan qarz manbai hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat ulushiga ega yirik sanoat korxonalarini xususiylashtirish va ularning aksiyalarini IPO orqali joylashtirish dasturi amalga oshirilmoqda. 2022-yilda Qizilqumsement IPO orqali aksiyalarni joylashtirib, 200 mlrd so'mdan ortiq mablag' jalb qildi. 2023-yilda UzAuto Motors IPO dasturini boshlab, xorijiy investorlarni ham jalb etdi, 2024-yilda energetika sohasidagi ayrim korxonalar IPOga chiqdi. SPO — takroriy ochiq taklif amaliyoti ham rivojlanmoqda. Korxonalar avval chiqarilgan aksiyalarni qo'shimcha ravishda bozorga taklif etib, moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Toshkent fond birjasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2025-yillarda bozor aylanmasi sezilarli o'sishga erishdi. Savdolar hajmi 5 yil ichida 3–4 barobarga oshdi. Xususiy investorlar soni bir necha marta ko'paydi. Korporativ obligatsiyalar ulushi fond bozori savdolarining 40–50 % gacha yetdi. Markaziy depozitariy ma'lumotlariga ko'ra, ayni paytda yuzlab sanoat korxonalar aksiyadorlik jamiyatlari sifatida davlat reestrda turibdi, ammo ularning barchasi ham fond bozorida faol ishtirok etmayapti.

O'zbekistonda sanoat korxonalarini qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirish tizimi izchil rivojlanib bormoqda. Ushbu jarayonda mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish uchun bir qator yo'nalishlarda takomillashtirish ishlari olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Korporativ boshqaruv tizimini yanada rivojlantirish, aksiyadorlar huquqlarini kafolatlash va menejment-aksiyadorlar o'rtasida barqaror boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish fond bozorini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Korxonalarda shaffof hisobot yuritish amaliyotini kengaytirish, davlat ulushi mavjud bo'lgan jamiyatlarda



korporativ standartlarni xalqaro mezonlarga yaqinlashtirish investor ishonchini sezilarli oshiradi hamda IPO jarayonlarining faollashuviga zamin yaratadi.

Fond bozorida investorlar qatlamini kengaytirish istiqbollari ham yuqori. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, kichik investorlar uchun qulay platformalar yaratish va rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish natijasida bozor likvidligi va aylanish hajmlari bosqichma-bosqich ortib borishi kutiladi. Aholining investitsiya madaniyatini rivojlantirish bu jarayonni yanada tezlashtiradi.

Likvidlikni mustahkamlash uchun korxonalarining IPO/SPO jarayonlarida faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash, aksiyalarni keng investorlar qatlamiga taklif qilish va bozor segmentlarini diversifikatsiya qilish muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Likvidlikning oshishi qimmatli qog'ozlarning real bozor narxlarini shakllantirishni yanada aniqroq qiladi.

Qonunchilik bazasining bosqichma-bosqich yangilanib borayotgani fond bozorini rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratmoqda. Qimmatli qog'ozlar chiqarish jarayonini soddalashtirish, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlarni kengaytirish va investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish bozor jozibadorligini oshirishi kutiladi.

Soliq siyosatini takomillashtirish orqali bozorni rag'batlantirish imkoniyati yuqori. Dividend va foiz daromadlari bo'yicha soliq yuki optimallashtirilsa, ayniqsa korporativ obligatsiyalar bo'yicha alohida imtiyozlar tatbiq etilsa, investorlar oqimi sezilarli darajada ortishi mumkin. IPO ishtirokchilariga mo'ljallangan soliq yengilliklari esa bozorga yangi emitentlar kirib kelishiga turtki bo'ladi.

Fond bozori infratuzilmasini zamonaviylashtirish, elektron savdo tizimlari funksional imkoniyatlarini kengaytirish, xorijiy investorlar uchun to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyatlarini yaratish va brokerlik kompaniyalari sonini oshirish bozorning institutsional barqarorligini mustahkamlaydi.

Axborot shaffofligini ta'minlash bozor ishtirokchilari uchun risklarni kamaytirib, investitsion qarorlar sifatini yaxshilaydi. Korxonalarining xalqaro standartlarga muvofiq ochiq hisobot yuritishi ularning jozibadorligini oshiradi va kapital bozorida faol ishtirok etishiga imkon yaratadi.

Xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilishda valyuta bozoridagi erkinlikning kengayishi, xalqaro reytinglar bo'yicha ko'rsatkichlarni yaxshilash va korporativ boshqaruvni global standartlarga moslashtirish ijobiy natijalar berishi kutiladi. Bu jarayon O'zbekiston kapital bozorining xalqaro integratsiyasini tezlashtiradi.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bozorning keng qamrovli rivojlanishiga xizmat qiladi. Investitsiya madaniyatining shakllanishi bilan qimmatli qog'ozlar bozori mamlakatda jamg'arma va investitsiya oqimlarini samarali taqsimlashning muhim mexanizmiga aylanadi.

Umuman olganda, ushbu yo'nalishlardagi tizimli islohotlar qimmatli qog'ozlar bozorining raqobatbardoshligini oshiradi, sanoat korxonalarining moliyaviy resurslarga bo'lgan kirishini kengaytiradi va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash jarayoniga kuchli turtki beradi.

Xalqaro tajriba va xalqaro moliya bozorlari tajribasida quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. AQSh dunyodagi eng yirik va rivojlangan qimmatli qog'ozlar bozoriga ega. Uning samaradorligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Ular quyidagilardan iborat: shaffof korporativ boshqaruv tizimi, qat'iy va bir vaqtning o'zida samarali qonunchilik bazasi, investorlar huquqlarini himoya qilishning kuchli tizimi, IPO va SPO jarayonlari uchun qulay sharoitlar, pensiya fondlari va institutsional investorlarning faol ishtiroki. Natijada AQShda sanoat va yuqori texnologiyali korxonalar qimmatli qog'ozlar bozori orqali katta miqdorda mablag' jalb qiladi.

Yevropa mamlakatlari tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u quyidagicha namoyon bo'ladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida qimmatli qog'ozlar bozori rivojlangan. Xususan, Germaniyada sanoat gigantlari IPO orqali mablag' jalb qilib, uni innovatsiyalarga yo'naltiradi. Fransiya va Buyuk Britaniyada davlat sarmoya institutlari ham bozorda faol ishtirok etadi. Yevropa qimmatli qog'ozlar bozorida ESG standartlariga rioya qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Yevropa tajribasi shuni ko'rsatadiki, qonunchilik va nazorat organlari hamda bozor ishtirokchilari o'rtasidagi muvofiqlik bozor barqarorligi uchun muhim omildir.

Janubiy Koreya tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, u quyidagicha: Janubiy Koreya 1960-yillarda iqtisodiy jihatdan qashshoq davlatlardan biri edi. Biroq davlat sanoatni moliyalashtirishda qimmatli qog'ozlar bozorini samarali yo'lga qo'ydi. Korxonalar davlat qo'llab-quvvatlovi bilan IPO orqali mablag' jalb qildi. Yirik sanoat guruhlar qimmatli qog'ozlar bozori orqali investitsiyalarni jalb etish orqali tez o'sdi. Moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlari amalga oshirildi. Natijada, Janubiy Koreya iqtisodiyotida Samsung, Hyundai, LG kabi kompaniyalar dunyo miqyosida yetakchi o'ringa chiqdi.

Xitoy tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Xitoy 1990-yillarda Shanxay va Shenchjen fond birjalarini tashkil etib, sanoatni moliyalashtirishda fond bozoridan keng foydalana boshladi. Davlat korxonalari IPO orqali xususiyashtirildi va innovatsion kompaniyalar uchun maxsus "STAR Market" tashkil etildi. Xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish uchun qator imtiyozlar berildi. Xitoy tajribasi O'zbekiston uchun ahamiyatlidir, chunki ikki mamlakatda ham davlat sektori ulushi katta.

Turkiya tajribasi ham diqqatga sazovor. Turkiyada Istanbul fond birjasi orqali sanoat korxonalari va banklar kapital jalb etmoqda. Bozor infratuzilmasining xalqaro standartlarga mosligi, davlat korxonalarining IPO orqali



xususiylashtirilishi, xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay soliq imtiyozlarining joriy etilishi bu jarayonni tezlashtirgan. Turkiya tajribasi O'zbekiston uchun muhim, chunki ikki mamlakat iqtisodiyotida sanoat ulushi katta va aholining moliyaviy savodxonligi o'xshash darajada.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, qimmatli qog'ozlar bozori sanoatni moliyalashtirishda strategik ahamiyatga ega. AQSh, Yevropa, Janubiy Koreya, Xitoy va Turkiya misollarida ko'rganimizdek, bu bozor orqali korxonalar kapital jalb qiladi, innovatsiya va yangi texnologiyalar rivojlanadi, investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. O'zbekiston uchun eng asosiy vazifa qonunchilikni takomillashtirish, korporativ boshqaruvni kuchaytirish, investorlar bazasini kengaytirish va bozor infratuzilmasini rivojlantirishdir. Faqat shundagina sanoat korxonalarini qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirish samarali tizimga aylanishi va milliy iqtisodiyot rivojiga kuchli turtki berishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, sanoat korxonalari uchun yangi moliya manbalari yaratish va sarmoya muhitini yaxshilashga qaratilgan muhim qadamlar amalga oshirildi. Xususan, qonunchilik bazasi takomillashtirildi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Davlat ulushiga ega yirik sanoat korxonalarining IPO orqali birjaga chiqishi boshlandi. Investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish va xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish bo'yicha dasturlar amalga oshirildi. Xulosa qilib aytganda, amaliy takliflar qonunchilik va huquqiy bazani takomillashtirish, IPO va SPO jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirish, investorlar huquqlarini himoya qiluvchi mustaqil organning vakolatlarini kengaytirish, xorijiy sarmoyadorlar uchun to'siqlarni qisqartirish va to'liq ochiqlikni ta'minlashdan iboratdir.

Korporativ boshqaruv va axborot shaffofligini kuchaytirish maqsadida barcha sanoat korxonalarini xalqaro hisobot standartlari (IFRS) bo'yicha hisobot e'lon qilishga majburiy qilish, davlat ulushiga ega korxonalarda korporativ boshqaruv kodeksini joriy etish, aksiyadorlar huquqlarini kengaytirish va minoritar aksiyadorlarni himoya qilish zarur. Investorlar bazasini kengaytirish uchun pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari va investitsiya fondlarini bozorga jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Xususi investorlar uchun dividend va foiz daromadlariga soliq imtiyozlarini joriy qilish, aholini qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritishga rag'batlantirish dasturlarini amalga oshirish talab etiladi. Bozor infratuzilmasini rivojlantirish elektron savdo tizimlarini modernizatsiya qilish, brokerlik va investitsiya kompaniyalari sonini ko'paytirish, xorijiy investorlar uchun onlayn ishtirok imkoniyatlarini kengaytirish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston sanoat korxonalarini qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirish milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, innovatsiyalarni rivojlantirish va investitsiya muhitini yaxshilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Barcha yuqoridagi amaliy takliflar bosqichma-bosqich amalga oshirilsa, qimmatli qog'ozlar bozori likvidligi oshadi, korxonalar uchun yangi moliya manbalari yaratiladi, investorlar huquqlari himoya qilinadi va ishonch mustahkamlanadi. Sanoat sohasida innovatsiya va texnologik yangilanishlar jadallashadi, O'zbekiston iqtisodiyotining jahon bozorida raqobatbardoshligi kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining 03.06.2015 yildagi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'RQ-387-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2662539>
3. O'zbekiston Respublikasining 06.05.2014 yildagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2382409>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2021 yildagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5371091>
5. Abduraxmonov Q.X. Korporativ moliya va kapital bozori. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022.
6. Toshqulov Sh.Q. Qimmatli qog'ozlar bozori nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021.
7. Yo'ldoshev B. Investitsiya jarayonlarini moliyalashtirishda qimmatli qog'ozlar bozorining roli. – Toshkent, 2020.
8. Mamatqulov A. Korporativ qimmatli qog'ozlar va ularning O'zbekiston iqtisodiyotidagi ahamiyati. // Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali. – 2021. – №4. – B. 45–58.
9. Karimov F. Sanoat korxonalarini moliyalashtirishda innovatsion moliya instrumentlari. – Toshkent, 2023.
10. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. – 13th ed. – New York: McGraw-Hill, 2022.
11. Fabozzi F.J. Handbook of Fixed Income Securities. – McGraw-Hill, 2020. Mishkin F.S., Eakins S.G. Financial Markets and Institutions. – 9th ed. – Pearson, 2021.
12. OECD. Principles of Corporate Governance. – Paris: OECD Publishing, 2019.
13. World Bank. Uzbekistan: Capital Market Development Report. – Washington DC, 2022.
14. IMF. Uzbekistan Financial Sector Assessment Program (FSAP). – Washington DC, 2021.
15. Allen F., Carletti E. The Roles of Banks and Markets in Financial Development. – European University Institute, 2020.
16. Levine R. Financial Development and Economic Growth: Theory and Evidence. – Journal of Economic Literature, 2019.



17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti – <https://cbu.uz>
18. "Toshkent" Respublika fond birjasi rasmiy sayti – <https://uzse.uz>
19. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi – <https://mof.uz>
20. International Monetary Fund (IMF) – <https://imf.org>
21. World Bank Data – <https://data.worldbank.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
